



Kataqo'rg'on katta o'zgarishlar ostonasida

Viloyatda "Eng og'ir ahvoldagi 101 ta mahalla ning infratuzilmasini yaxshilash dasturi" doirasida amalga oshirilayotgan ishlar jamoatchilik monitoringi tartibida o'rganildi.

Jomboy, Bulung'ur, Kataqo'rg'on va Samarqand tumanlarida olib borilgan monitoringlar shuni ko'rsatdiki, mablag' o'zlashtirilishi masalasi ijobiy siliq bo'lsa-da, muammolar ham yo'q emas. Masalan, viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida ajratilgan 303 milliard so'm mablag'ning o'zlashtirilishi dastlabki 115,3 milliard so'm (38 foiz)dan 183,8 milliard so'mga (61 foiz) yetkazilgan. Shundan, 93 ta mahallada 119,4 milliard so'm mablag' evaziga tomorqa sug'orish tizimini yaxshilash ishlari yakunlangan. 88 mahallaga elektr ta'minotini yaxshilash uchun 90 milliard so'm ajratilib, 13 ming dona beton ustun o'rnatilgan, 221 ta transformator joylashtirilgan hamda 615 kilometr elektr tarmog'i tortilgan.

Biroq joylarda o'tkazilgan o'rganishlar ayrim ma'lumotlar bilan amaldagi holat o'rtasida tafvutlar mavjudligini ko'rsatdi. Masalan, Jomboy tumani Saroy mahallasida tuman hokimligi va mahalla fuqarolar yig'ini o'rtasida kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan uch tomonlama shartnoma belgilangan tartibda tuzilmagani aniqlandi. Hisobotda 3 ta yangi transformator o'rnatilgani ko'rsatilgan bo'lsa-da, amalda 1 ta yangi transformator o'rnatilgan, 2 tasi esa ta'mirlangan.

Sug'orish tizimini yaxshilash doirasida 3,2 kilometr ariq betonlashtirilgan. Ammo 20 metr qismida cho'kish kuza-tilib, suv sizib chiqayotgani aholining haqli noroziligiga sabab bo'lgan.

Tumanning Shirinkent mahallasida 1,8 kilometr ariq betonlashtirilgan va ishlar sifatli bajarilgan. Transformatorlar bo'yicha hisobot va amaliyot o'rtasida tafvut mavjud, ya'ni 3 ta yangi transformator deb ko'rsatilgan bo'lsa-da, 1 tasi yangi, 2 tasi ta'mirlangan.

Bulung'ur tumani Gulobod mahallasida 2 ta transformator o'rnatilib, 5 kilometr elektr tarmog'i tortilgan. Ishlar sifatli bajaril-

Samarqandda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar, keng ko'lami bunyodkorlik ishlari va iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar bugun Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yorqin ifodasiga aylanmoqda. Prezidentimizning amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va boshqa sohalardagi loyihalar bilan tanishish hamda yangilarini ishga tushirish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha navbatdagi ustuvor vazifalarni belgilash maqsadida 18-19-mart kunlari viloyatimizga amalga oshirgan tashrifi tom ma'noda tarixiy voqea bo'ldi. Xususan, viloyatning mamlakat iqtisodiyotidagi strategik o'rnini yanada mustahkamlash maqsadida umumiy qiymati qariyb 7 milliard dollarlik 106 ta yangi investitsiya loyihasiga start berilgani ham katta ahamiyatga ega.

- Davlatimiz rahbari tumanlarning sanoat, servis va qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari, yer osti va yer usti zaxiralari, mehnat resurslari, aholining biznes va kasbiy ko'nikmalarini tahlil qilish, mahallalar imkoniyatlaridan kelib chiqib, ichki rivojlanish modelini yaratish zarurligini ta'kidladi, - deydi Kataqo'rg'on tumani hokimining birinchi o'rinbosari Norboy Jo'imatov. - Shu jumladan, tumanda sanoat va servisni rivojlantirish, hududlarga yangicha qiyofa olib kirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Mazkur topshiriqqa asosan 26 banddan iborat yo'l xaritasi ishlab chiqildi.

Hokim o'rinbosarining aytishicha, ushbu rejalar nafaqat raqamlarda, balki odamlar hayotidagi real o'zgarishlarda o'z ifodasini topishi bilan ahamiyatli.

- Joriy yilda sanoat mahsulotlari hajmini 2928,0 milliard so'mga yetkazish va o'sish sur'atini 109,4 foizga ta'minlashni rejalashtiryapmiz, - deydi N.Jo'imatov. - Bu natijaga erishish uchun mavjud 201 ta korxonada faoliyatini yanada samarali tashkil etish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, investitsiya dasturlari doirasida sanoat sohasida 27 ta yangi loyihani amalga oshirish rejalashtirilgani iqtisodiy o'sishga kuchli turtki beradi. Bu loyihalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholi daromadlarining ko'payishiga xizmat qiladi. Shuningdek, "Sanoat shtabi" tomonidan korxonalaridagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilishi sanoatda samaradorlikni yanada oshiradi.

Xizmatlar sohasi esa zamonaviy iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Tumanda joriy yilda xizmatlar hajmini 2094,1 milliard so'mga yetkazish va 119,6 foizlik o'sishga erishish maqsad qilingan. Buning uchun zamonaviy xizmat turlarini ko'paytirish, xalqaro avtomobil yo'llari bo'yida yangi infratuzilmalarni barpo etish va turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish ko'zda tutilgan.

- Yil davomida 59 ta yirik xizmat ko'rsatish loyihalar amalga oshirilib, 220 ta yangi ish o'ri yaratiladi, - deya davom etdi Norboy aka. - Turizm sohasidagi 15 ta loyiha esa nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy rivojlanishga ham xizmat qiladi. Tuman markazida 24/7 rejimida ishlaydigan ko'chalar tashkil etilishi esa xizmatlar sohasida yangi bosqichni boshlab beradi.

Aholi bandligini ta'minlash — ijtimoiy barqarorlikning eng muhim shartlaridan biri. Shu sababli ishsizlik darajasini 5,1 foizdan 3,6 foizga tushirish vazifasi qo'yilgan. Buning uchun 5601 nafar fuqaroni doimiy ish bilan ta'minlash rejalashtirilgan bo'lib, bu turli sohalarni qamrab olgan kompleks choralar orqali amalga oshiriladi.

Umuman, xizmat ko'rsatish sohasida 1261 nafar, bandlik dasturlari orqali 1083 nafar, tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 1428 nafar fuqaro ish bilan ta'minlandi. Qishloq xo'jaligi, investitsiya va qurilish sohalari ham bandlikni oshirishda muhim o'rin tutadi. Bu ko'rsatkichlar hududda ishsizlik muammosini keskin kamaytirish imkonini beradi.

Yangi yondashuvlar asosida aholini daromadli mehnatga jalb qilish orqali qariyb 48 ming nafar aholining bandligini ta'minlash rejasi esa juda katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu nafaqat ish bilan ta'minlash, balki aholi daromadlarini oshirish va turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida kambag'allik darajasini 6 foizdan 1,9 foizga tushirish maqsadi belgilangan ijtimoiy siyosatning insonparvarlik mohiyatini namoyon etadi. Reestruga kiritilgan 2621 nafar fuqaroni kambag'allikdan chiqarish uchun kompleks choralar ko'rilmog'ida. Ular orasida ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish, kasb-hunarga o'qitish va norasmiy faoliyatni legallashtirish kabi yo'nalishtirish bor.

Ayniqsa, vaucher asosida 859 nafar aholini kasb-hunarga o'qitish tizimi joriy etilishi inson kapitalini rivojlantirishda muhim qadam hisoblanadi. Bu orqali aholi zamonaviy kasblarga ega bo'lib, mehnat bozorida raqobatbardoshlikka erishadi.

Kataqo'rg'on tumani mutasaddilari bilan suhbatlashar ekanmiz, amalga oshirilayotgan har bir loyiha ortida inson manfaati, aholi uchun qulay turmush sharoiti yaratish maqsadi mujassam ekanini yana bir bor his etdik. Misol uchun, har bir mahallada kamida 10 tadan mikroloyiha amalga oshirilishi orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanadi.

- Yil davomida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 5,4 trillion so'mga yetkazish rejalashtirilgan, - deydi Norboy Jo'imatov. - Buning uchun don, sabzavot, meva-sabzavot, pilla va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish choralarini ko'rilmog'ida. "Bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida mahsulot yetishtirish esa agrar sohada samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, suv tejavochi texnologiyalarni joriy qilish orqali resurslardan oqilona foydalanish ta'minlanadi.

2026-yilda 175,6 million dollarlik investitsiya jalb qilish rejasi belgilab olingan. Bu loyihalar sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarni qamrab oladi.

Yirik investitsiya loyihalari orasida zamonaviy transformatorlar ishlab chiqarish, sement sanoatida energiya tejankor texnologiyalarni joriy qilish va tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish kabi tashabbuslar alohida o'rin tutadi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2026-yilda 27,8 million dollarlik mahsulot eksport qilinib, hudud iqtisodiyotining tashqi bozorlardagi o'rnini mustahkamlanadi.

Umuman, yo'l xaritasida belgilangan chora-tadbirlar hududni kompleks rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular iqtisodiy o'sish, aholi bandligi va farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Eng muhimi, ushbu rejalarining amalga oshirilishi odamlar hayotida real ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

Y.MARQAYEV.

Jamoatchilik nazorati qachon ustuvor bo'ladi?



gan. O'roqli mahallasida 2 ta transformator o'rnatilgan, biroq rejalashtirilgan 3 kilometr o'rniga 2,3 kilometr elektr tarmog'i tortilgan. Shuningdek, mahallada 1 ta suv nasosi o'rnatilgan, 6,9 kilometr ariq betonlashtirilgan. 30 ta simyog'och va 700 metr tarmoq tortish ishlari bajarilmagan. Ariqni betonlashtirish jarayonida daraxtlar kesilgan.

Samarqand tumanida texnik talablar to'liq bajarilmagan. Masalan, Yangijoy mahallasida 2 ta suv nasosi va ular uchun 2 ta transformator o'rnatilgan, 1,2 kilometr ariq betonlashtirilgan, 5 ta yangi transformator o'rnatilgan, 5,5 kilometr elektr tarmog'i tortilgan, 163 ta simyog'och o'rnatilgan. Ammo jamoatchilik e'tiroziga ko'ra, simyog'ochlar orqali tortilgan elektr tarmoqlari belgilangan texnik talablar asosida mustahkamlanmagan, maxsus qotirgichlar o'rnatilmagan.

Jamoatchilik monitoringi shuni ko'rsatdiki, amalga oshirilayotgan ishlar hajmi katta bo'lishiga qaramay, ayrim hududlarda sifat, shaffoflik va hisobot berish masalalarida kamchiliklar bor.

Avvalo, tanlab olingan mahallalarda tuman (shahar) hokimligi, mahalla fuqarolar yig'ini va mas'ul tashkilotlar o'rtasida uch tomonlama shartnomalarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish hamda ijrosini tizimli nazoratga olish zarur.

Ariq va zovurlarni betonlashtirish jarayonida daraxtlarni asrash bo'yicha qat'iy tartib joriy etish, har bir loyihaning boshlanishi va yakunida mahalla aholisi uchun ochiq hisobot berish amaliyotini yo'lga qo'yish kerak. Shunda amaldagi ma'lumotlar bilan joylardagi real holat muvofiqlashadi, soxta yoki noto'g'ri hisobotlarga chek qo'yiladi.

Nodir QUDRATOV,

"Yuksalish" harakati viloyat bo'linmasi bosh mutaxassisi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda qonun ustuvorligini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish va davlat organlari faoliyatida ochiqlikni kuchaytirish yo'lida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda sud hokimiyatining o'rni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ma'muriy sudlar faoliyati orqali davlat organlari qarorlarining qonuniyligi tekshirishi va fuqarolar hamda tadbirkorlarning huquqlari tiklanishi amalda qonun ustuvorligining muhim ko'rinishidir.

Soliq idorasining asossiz jarimasi sudning adolatli qarori bilan bekor bo'ldi

Samarqand tumanlararo ma'muriy sudida ko'rilgan "Yumaxfarm-Servis" mas'uliyati cheklangan jamiyati ishi ana shunday holatlardan biri bo'lib, u orqali sud adolati qanday amal qilayotganini, davlat organlari qarorlari qanday huquqiy baholanishini va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari qay darajada himoya qilinayotganini ko'rish mumkin.

NIZONING MOHIYATI: KATTA JARIMA VA UNING HUQUQIY ASOSI

Mazkur ishning markazida juda katta miqdordagi — 1 milliard 345 million so'mdan ortiq moliyaviy jarima turdi. Samarqand viloyati soliq boshqarmasi tomonidan "Yumaxfarm-Servis" MChJga nisbatan sayyor soliq tekshiruv o'tkazilib, tekshiruv natijalariga ko'ra jamiyatga bir necha turdagi moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan.

Jumladan, soliq bazasini yashirish bilan bog'liq holatlar uchun alohida jarima belgilangan bo'lsa, asosiy bahsga sabab bo'lgan holat — mahsulotlarni raqamli markirovkalash qoidalarini buzganlik uchun Soliq kodeksining 227-moddasi asosida hisoblangan ulkan jarima bo'ldi.

Soliq organi fikricha, jamiyat mahsulotlarni raqamli identifikatsiya vositalarisiz muomalaga kiritgan, tegishli axborot tizimiga ma'lumot yubormagan va shu orqali qonun talablarini buzgan. Shu asosda korxonaning oxirgi hisobot choragidagi tushumiga nisbatan 2 foiz miqdorida jarima hisoblangan.

Bir qarashda, davlat organining pozitsiyasi qonunga asoslanganday tuyuladi. Ammo sud jarayonida masalaning ancha murakkab va nozik jihatlari ochib berildi.



DALIL VA QAROR O'RTASIDAGI ZIDDIYAT

Sud muhokamasi davomida eng muhim masala — soliq organi tomonidan qabul qilingan qarorning asoslanganligi va uning tekshiruv hujjatlariga mos kelishi bo'ldi.

Ma'lum bo'lishicha, sayyor soliq tekshiruvini yakuni bo'yicha tuzilgan dalolatnomada jamiyat tomonidan aynan dori vositalari va tibbiy buyumlarni markirovkalash tartibini buzganligi aniqlanib va ravshan ko'rsatib berilmagan. Ya'ni, Vazirlar Mahkamasining 149-son qarori talablari buzilganligi haqida aniqlanib xulosa mavjud emas. Biroq shunga qaramasdan, soliq organi aynan shu normalarga tayanib, katta miqdordagi jarimani qo'llagan.

Bu esa juda muhim huquqiy muammoni — dalolatnoma va qaror o'rtasidagi ziddiyatni keltirib chiqargan. Sud aynan shu nuqtaga alohida e'tibor qaratdi. Chunki amaldagi qonunchilikka ko'ra, har qanday javobgarlik chorasi aniqlanib va rasmiy hujjatlar asosida qo'llanilishi lozim. Agar tekshiruv hujjatlarida muayyan qoidabuzarlik qayd etilmagan bo'lsa, uning uchun jarima qo'llash qonuniy hisoblanmaydi.

ISBOTLASH MAJBURIYATI DAVLAT ORGANLARI ZIMMASIDA

Qonunga ko'ra, soliq organlari yoki boshqa ma'muriy organlar o'z qarorlarining qonuniyligini isbotlab berishi shart. Ya'ni, tadbirkor o'zining ayb-sizligini emas, balki davlat organi uning aybdorligini dalillar bilan ko'rsatishi kerak.

Sud mazkur ishda aynan shu prinsipga tayanib qaror chiqardi. Chunki soliq organi o'z da'vosini to'liq va ishonchli dalillar bilan asoslab bera olmadi.

Bu esa sud amaliyotida juda muhim ahamiyatga ega. Chunki bu orqali "davlat aytsa — demak to'g'ri" degan eski qarash emas, balki "har bir qaror dalil bilan isbotlanishi shart" degan zamonaviy huquqiy yondashuv qaror topayotgani namoyon bo'ldi.

SOLIQ TO'LOVCHI FOYDASIGA TALQIN TAMOYILI

Sud o'z qarorini chiqarishda yana bir muhim tamoyilga — soliq to'lovchining haqliq prezumpsiyasiga ham tayandi. Bu tamoyilga ko'ra, agar qonunchilikda noaniqliklar yoki qarama-qarshiliklar mavjud bo'lsa, ular soliq to'lovchi foydasiga talqin qilinishi lozim. Mazkur holatda aynan shunday vaziyat yuzaga

kelgan: tekshiruv dalolatnomasi bilan soliq organi qarori o'rtasida aniqlanib ziddiyat mavjud bo'lgan. Demak, bu holat tadbirkor foydasiga hal qilinishi kerak edi. Sud ham shu yo'lga intiladi va bu orqali qonunchilikda belgilangan tamoyillarni amalda qo'lladi.

Yuqoridagi barcha holatlarni inobatga olgan holda, sud "Yumaxfarm-Servis" MChJning arizasini qanoatlantirdi va soliq organi tomonidan qo'llangan 1,3 milliard so'mdan ortiq moliyaviy jarimani haqiqiy emas deb topdi.

Bu qaror bir qarashda alohida bir korxonada manfaatini himoya qilgan holatdek ko'rinishi mumkin. Ammo aslida u ancha kengroq ahamiyatga ega.

ISHDAN CHIQRILDIGAN ASOSIY XULOSALAR

Mazkur sud ishi bir qator muhim xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Birinchi navbatda, har qanday davlat organi qarori aniqlanishiga asoslanishi shart. Hujjatlarda qayd etilmagan holatlar uchun javobgarlik qo'llash mumkin emas.

Ikkinchidan, tadbirkorlar o'z huquqlarini himoya qilishdan cho'chimasligi kerak. Sudga murojaat qilish — bu qonun bilan kafolatlangan huquq va u amalda ishlayapti.

Uchinchidan, ma'muriy sudlar faoliyati tadbirkorlik muhitini yaxshilashda muhim o'rin tutmoqda. Chunki ular orqali davlat organlarining noqonuniy qarorlari bekor qilinishi mumkin.

To'rtinchidan, qonunchilikdagi noaniqliklar tadbirkor foydasiga hal qilinishi lozimligi amalda o'z tasdig'ini topmoqda.

Agar tadbirkor o'zini himoya qila olishini bilsa, u yanada faol ishlaydi, investitsiya kiritadi va yangi ish o'rinlari yaratadi. Aks holda esa asossiz tekshiruv va katta jarimalar tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo'yishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur sud qarori nafaqat bir korxonada, balki butun biznes muhiti uchun ijobiy signal bo'ldi.

Agar tadbirkor o'z haqini talab qilsa va sudga murojaat qilsa, adolatga erishish mumkin. Bu esa huquqiy davlat qurish yo'lidagi eng muhim qadamlardan biridir.

Bahodir QARSHIYEV,

"Shohruh" advokatlik firmasi advokati.

Ba'zida ommaviy axborot vositalari yoki ijtimoiy tarmoqlarda kimningdir yashash uyi, kimningdir imorati buzilgani yoki fuqaro jarimaga tortilgani haqida o'qiyamiz, eshitamiz. Ko'p hollarda bunga nima sabab bo'lgani haqida o'ylab o'tirmaymiz.

Aslida esa hech kimning bino-inshooti sud qarorisiz buzilishi mumkin emas, mulk egasining jarimaga tortilishiga ham uning qonunga zid harakati yoki harakatsizligi sabab bo'ladi.

Viloyat prokuraturasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining "Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining ijrosi o'rganilganda bir qator qonun buzilishi holatlari aniqlandi. Bunda asosan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarida noqonuniy qurilgan uy-joylarning elektr energiyasi tarmoqlariga ulanishiga ruxsat berish ahvoli o'rganildi.

Afsuski, o'rganishlar jarayonida viloyatimizda 798 nafar jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan sug'oriladigan yer maydonlarida noqonuniy qurilishlar amalga oshirilgani holda "HET Billing" dasturida hisob raqam ochilib, elektr energiya iste'molchisi sifatida ro'yxatga kiritilgani aniqlandi.

Elektr tarmoqlari korxonalarining mas'ul xodimlari bu iste'molchilarni yuqoridagi qarorlarga zid ravishda, bino va inshootlarning kadastr raqamlar mavjud bo'lmasa-da, noto'g'ri kadastr raqamlari

Noqonuniy qurilmaga kommunal xizmat ko'rsatilmaydi



orqali "HET Billing" dasturiga kiritgan. Natijada iste'molchilar tomonidan 4 million 746 ming 349 kVt soat (2 milliard 953 million 319 ming so'mlik) elektr energiyasidan foydalanilgan. Masalan, Bulung'ur tumani elektr ta'minoti korxonasi va "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati "Energosavdo" filiali Bulung'ur tumani bo'limi mas'ul xodimlari bir qancha fuqoralarga tegishli elektron kalitlar orqali 79 iste'molchi ma'lumotlarini "PK Elektrhisob" va "HET Billing" dasturlariga kiritgan. Xuddi shunday Oqdaryo tumani elektr ta'minoti korxonasi mas'ul xodimlari tuman aholisiga tegish-

li elektron kalitlari orqali 148 ta, Urgutda 124 ta, Paxtachida 121 ta, Payariqda 71 ta, Jomboyda 61 ta, Narpayda 53 ta, Past Darg'omda 33 ta iste'molchi Vazirlar Mahkamasining 319-son qaroriga zid ravishda tizimga kiritilgan.

Vaholanki, bu davrda elektr tarmoqlariga noqonuniy ulangan, o'zboshimchalik bilan qurilgan qurilmalarni buzish to'g'risida Payariq tumanida 385 ta, Urgutda 346 ta, Oqdaryoda 289 ta, Qo'shrabotda 279 ta, Kattaqo'rg'on tumanida 274 ta, Samarqand tumanida 245 ta, Ishtixonda 228 ta, Nurobodda 220 ta, Bulung'urda 185 ta, Jomboyda 181 ta, Toyloqda 169 ta, Past Darg'omda 140 ta, Paxtachida 116 ta va Narpay tumani bo'yicha 66 ta da'vo arizalar kadastr agentligi tomonidan sudlarga kiritilgan va ular qanoatlantirilib, ijro ishlari hududiy MIB idoralarga yuborilgan. Shuningdek, mazkur toifadagi qurilmalarni qurgan huquqbuzarlarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralarini ko'rilgan.

Aniqlangan qonun buzilishi holatlarining kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish va kelgusida ushbu holatlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan mutasaddi idoralarga taqdimnomalar kiritildi.

Dilshod O'SAROV,
viloyat prokuraturining o'rinbosari.
Rahim HAKIMOV,
viloyat prokuraturasi bo'lim boshlig'i.

Xalqimiz azaldan o'z hovlisi, keng ko'chasi, umuman, shaxsiy hududini qadrlab keladi. Biroq shaharsozlikning jadal rivojlanishi va ijtimoiy ehtiyojlar qiyofamizga o'zgarishlar kiritib, xalqimizni ko'p qavatli uylarda yashash qulayliklariga o'rgatdi. Kvartirada yashashning o'ziga xos afzalliklari bor, biroq u mutlaqo boshqacha ijtimoiy va huquqiy munosabatlarni talab qiladi.

Agar shaxsiy hovlida tozalik yoki quvurlardagi nosozlik faqat o'zimizning zimmasida bo'lsa, ko'p qavatli uylarda umumiy mulk - zina, lift, yerto'la, tom va binoning tashqi qismidan foydalanishda nosozliklar kelib chiqsa, bu shirkatlar yoki boshqaruv servisi kompaniyalari zimmasida bo'ladi. Ana shu hududlarni ozoda saqlash, asrab-avaylash va xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus boshqaruv organlari shirkatlar yoki xalq tilida "jek"lar xizmatiga murojaat qilamiz va har oy qat'iy belgilangan badal pullarini to'lab bo'amiz. Ularning vazifasi fuqarolarning xavfsiz yashashi uchun munosib shart-sharoit yaratish hisoblanadi. Lekin amaliyotda har doim ham bu muvozanat saqlanmaydi. Aksariyat hollarda oylab tozalangan pod'yedlar, kunlab ishlamaydigan lift yoki yerto'ladagi nosozliklar tufayli kelib chiqadigan noxush holatlar ko'pchilikning e'tirozlariga sabab bo'ladi. Murojaat qilinganda esa ko'pincha qandaydir bahonalalar ro'kach qilinadi yoki muammo-

YANGI QOIDALAR TASDIQLANDI

Ko'p qavatli uyda yashovchilar nimalarni bilishi shart?



ni bartaraf etish noaniq muddatga cho'zilib ketadi. Bunga asosiy sabablardan biri - aholining o'z huquqlari, xizmat ko'rsatuvchining esa o'z majburiyatlarini chegarasini to'liq anglamasligida edi.

Endi bu kabi tushunmovchiliklar, mavhum va'dalar va e'tiborsizliklarga huquqiy jihatdan aniq nuqta qo'yilmoqda. Adliya vazirligi tomonidan "Ko'p kvartirali uylarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalarini" davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Bu shunchaki qog'ozdagi navbatdagi hujjat emas, balki siz va bizning kundalik yashash sharoitimizni bevosita himoya qiluvchi, bajarilishi qat'iy talab qilinadigan mexanizmdir.

Xo'sh, ushbu yangi hujjatga ko'ra, ko'p qavatli uyda yashovchi mulkdor sifatida fuqarolar qanday huquqlarga ega bo'ldi va boshqaruv kompaniyalari zimmasiga qanday aniq majburi-

yatlar yuklandi?

Yangi qoidalariga ko'ra, ko'p kvartirali uylar uchun boshqaruv organlari tomonidan umumiy texnik pasport yuritilishi belgilab qo'yilgan. Uylarning fasad qismlarida va umumiy foydalanish hududlarida mulkdorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan me'morchilik detallari, reklama, afisha va e'lonlarni o'rnatish mumkin. Eng muhimi, uylarda shovqin darajasi belgilangan sanitariya me'yorlaridan oshmasligi shart.

Shuningdek, uylarning zinapoya, lift, chiqindi kamerasi, chiqindilarni to'plash moslamalari, yerto'lalari, zaruratga ko'ra, boshqaruv organi tomonidan deratizatsiyalanishi, dezinfeksiya va dezinfeksiyalanishi lozim. Yana bir muhim jihati, uylarning yerto'lasidagi quvurlarda avariya holati yuzaga kelishi natijasida suv yoki oqova suv to'planib qolsa, boshqarish

organi 24 soat mobaynida yerto'ladagi suv va oqova massalarini chiqarib yuborishi kerak.

Umumiy texnik pasport yuritilishi ko'p qavatli uylarda ularning umumiy mulkini himoya qiluvchi asosiy hujjat bo'lib xizmat qiladi. Masalan, kimdir yerto'lani egallab olsa yoki podyezdda qo'shimcha devor qursa, aynan texnik pasport orqali bu joyning umumiy foydalanishda ekanligini isbotlash bo'ladi. Chunki texnik pasportda uylarning nechanchi yil qurilgani, devorlar materiallari, tomlarning holati yozilgan bo'ladi. Bu ma'lumotlarga tayangan holda majburiy badal miqdori belgilanadi. Shuningdek, har xil afisha e'lonlar ko'p kvartirali uylarning fasad qismiga faqatgina shu uy mulkdorlarining roziligi bilan amalga oshirilishi ham ko'pchilik manfaatlarini ifodalaydi. Foydalanuvchi boshqalarning huquqlarini poymol qilmasligi lozim. Endi soat 23:00 dan keyin shovqin qilish, boshqalarning halovatini buzish ta'qiqlanadi. Chunki bu uyda yosh farzandli yoki qariyalari bo'lgan oilalar ham yashaydi. Shuningdek, uylardagi umumiy foydalanishdagi joylar dizayniga qilinishi ham aholining salomatligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu paytgacha uy egalari boshqaruvchi bilan kirish yo'lagi, lift va zinapoyalar tozaligi bo'yicha nizoli vaziyatlarga kirishardi. Endilikda lift, zinapoya va kirish yo'lagini haftasiga bir marta tozalash ham boshqaruv zimmasiga yuklatildi.

Fuqarolarimiz o'z huquq va majburiyatlarini anglagan holda faqatgina huquqiy kafolatlangan yozma shartnomalarga tayanishlari lozim. Unutmang, o'z vaqtida rasmiylashtirilgan qonuniy hujjat ertangi xotirjamlik va barqarorlikning eng mustahkam kafolatidir.

Anbaroy JUMABOYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi.



Samarqand "travmatologiyasi"da robot jarroh

ish boshladi

Respublika ixtisoslashgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filialida ilk bor robot texnologiyasi yordamida operatsiya amalga oshirildi.

Xitoydan keltirilgan zamonaviy navigator yordamida mahalliy va xitoylik shifokorlar hamkorligida chanoq - son bo'g'imi bilan bog'liq xastaligi bor ikki nafar bemor operatsiya qilindi. - O'tgan yili Xitoy davlatida bo'lib, bir nechta tibbiy muassasalarda malaka oshirdik, - deydi Respublika ixtisoslashgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filiali bosh shifokori Oybek Mamatqulov. - Malaka oshirish barobarida xitoylik hamkasblar bilan qator kelishuvlar ham imzolandi. Jumladan, robot texnologiyasi yordamida jarrohlik amaliyotlarini amalga oshirish borasida ham kelishuvlar tuzilgani, bugun shu kelishuvlarning amalidagi ifodasi sifatida ilk bor robototexnologiya yordamida chanoq-son operatsiyalari muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Ushbu texnologiya yordamida o'tkazilgan jarrohlik amaliyoti yuqori aniqlikda amalga oshirilishi bilan e'tiborli. O'tgan yili markazda davolangan bemorlarning 9,5 ming nafari jarrohlik usulida shifo topgan bo'lsa, 6,5 ming nafari laproskopik usulda davolangan. Ikki mingga yaqin bemorlar chanoq-son bo'g'imi xastaliklaridan aziyat chekib, jarrohlik amaliyotlarini o'tkazgan.

Xorij davlatlarida robot texnologiyalari yordamida operatsiyalar 15 yildan beri amalga oshiriladi, - deydi Pekin universiteti professori, doktor Tian Hua. - Ushbu texnologiyaning qulay tomonlari shundaki, birinchidan, asoratlar kam bo'ladi, shuningdek, har bir operatsiya bemorning individual ko'rsatkichlari va aniq reja asosida o'tkaziladi. Qolaversa, bemorning reabilitatsiya davri an'anaviy operatsiyalardagidan ko'ra ancha qisqaradi va bir necha kun ertaroq oyoqqa turadi.

Ushbu yangi texnologiyani ishga tushirish munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda viloyat hokimining o'rinbosari Husan To'xtayev ishtirok etdi.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Rajamuradov Zaynitdinga (2025-yil 17-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Latipov Safaraliga (2023-yil 10-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Pak Stanislav Grigorevichga (2025-yil 22-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Tursunov Raxmat Rajabovichga (1993-yil 23-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Mamatqulov Abdullaga (2008-yil 14-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatilayevna notarial idorasida marhum Kasimova Xalima Xamidovnaga (2018-yil 23-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatilayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Xodjiyeva Norga (2009-yil 19-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Xamidov Xalim Salaxiddinovichga (2002-yil 9-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Turdiboyev Kamol Kuvandikovichga (2010-yil 15-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Gaziyev Abdurasulga (2021-yil 21-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi 200-uy 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Tonyan Samvel Aleksandrovichga (2026-yil 14-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Jahongir Ilhomovich notarial idorasida marhum Sattarova Hilola Akramovnaga (2024-yil 29-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Jahongir Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Abdulla Qurbonov mahallasi, Saroy ko'chasi.

Ipak yo'li muzeyi

qurilishi sohada yangi bosqichni boshlab beradi

Ipak yo'li mavzusini faqat karvonlar, ipak, ziravorlar va savdogarlar tarixi bilan cheklash noto'g'ri bo'ladi. Zamonaviy muzeyshtunlikda Ipak yo'li madaniyatlar, g'oyalar, dinlar, texnologiyalar, tillar, san'at uslublari va odamlar harakati tizimi sifatida talqin qilinadi. Masalan, xalqaro ko'rgazmalarda ham Ipak yo'li Osiyo, Afrika va Yevropa xalqlarini bog'lagan murakkab tarmoq sifatida talqin qilinmoqda.



Samarqanddagi yangi muzey ham Ipak yo'lini global aloqalar tarixi sifatida ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini yanada chuqur ochib beradi.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 21-apreldagi qarori bilan Samarqandda 9 gektar maydonda barpo etilishi rejalashtirilayotgan Ipak yo'li muzeyi O'zbekistonning xalqaro madaniy imijini kuchaytiruvchi yirik ilmiy-ma'rifiy markaz bo'lishi kutilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, muzey ekspozitsiyasi arxeologiya, tasviriy san'at va amaliy san'atga oid 6 mingdan ziyod noyob eksponatni birlashtiradi. Unda doimiy va vaqtincha ko'rgazmalar, 160 o'rinni auditoriya, bolalar akademiyasi, konservatsiya va tadqiqot markazi hamda katta fond saqlov xonalari tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Muzey nafaqat Samarqandni, balki O'zbekistonni Ipak yo'li sivilizatsiyasini ilmiy asosda

tushuntiradigan markaz sifatida namoyon etadi. Samarqand qadimdan savdo, diplomatiya, dinlar, tillar, hunarmandchilik, shaharsozlik va madaniy almashinuvlar chorrohasi bo'lgan. Shuning uchun bu muzey birgina shahar yoki mamlakat tarixini emas, balki Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharq o'rtasidagi keng aloqalar tarixini ko'rsatishi lozim.

Agar loyiha to'liq ilmiy konsepsiya asosida amalga oshirilsa, Ipak yo'li muzeyi O'zbekistonda-gi aksar muzeylardagi an'anaviy "eksponatlar joylashtirilgan zallar"dan farq qilishi tabiiy. Unda tarixiy buyumlar madaniy almashinuv, savdo yo'llari, shaharlar, sulolalar, dinlar, elchilik aloqalari, hunarmandchilik maktablari haqida kompleks hikoya qilinadi.

Loyihada konservatsiya va tadqiqot markazi tashkil etilishi nazarda tutilgani juda muhim. Bu muzeyni oddiy tomosha maydonidan ilmiy muassasaga aylantiradi. Chunki Ipak yo'li mavzusi ko'plab fanlarning tadqiqot obyekti. U arxeo-

Munosabat

logiya, tarix, etnografiya, san'atshunoslik, numizmatika, manbashunoslik, restavratsiya, muzeyshtunlik, geografiya, iqtisodiy tarix va boshqa gumanitar fanlar bilan bog'liq. Shu bilan birga, Samarqand kabi tarixiy shaharda barpo etiladigan Ipak yo'li muzeyi O'zbekistonning tarixiy merosini xalqaro miqyosda ishonchli, zamonaviy va ilmiy asosda namoyish etishi zarur. Bu muzey Samarqand uchun bir necha jihatdan muhim.

Birinchidan, u shaharning turistik salohiyatini oshiradi. Samarqandga kelgan sayyoh faqat Registon, Shohi Zinda, Amir Temur maqbarasi yoki boshqa diqqatga sazovor maskanlarni ko'rish bilan cheklanmay, Ipak yo'li tarixi haqida ilmiy tasavvurga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, muzey mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar uchun ilmiy baza vazifasini bajarishi mumkin. Agar fond saqlov xonalari, tadqiqot markazi va konservatsiya laboratoriyalari to'g'ri yo'lga qo'yilsa, bu yerda arxeologik va san'atshunoslik tadqiqotlari, xalqaro seminarlar, ilmiy konferensiyalar va qo'shma ekspeditsiya natijalari muhokama qilinadi.

Uchinchidan, muzey ta'lim sohasiga xizmat qiladi. Bolalar akademiyasi va 160 o'rinni auditoriya muzeyni maktab o'quvchilari, talabalar, magistrantlar, doktorantlar va gidlar uchun doimiy ta'lim maydoniga aylantirish imkoniyati yaratiladi.

To'rtinchidan, muzey Samarqanddagi mavjud muzeylar va madaniy meros muassasalari faoliyatini birlashtiruvchi markazga aylanadi. Bu esa muzeylar o'rtasida fond, ko'rgazma, tadqiqot va raqamlashtirish sohalarida hamkorlikni kuchaytiradi.

Bir so'z bilan aytganda, Samarqandda barpo etiladigan Ipak yo'li muzeyi O'zbekiston muzeyshtunligida yangi bosqichni boshlab berishi kutilmoqda. U tarixiy xotira, ilmiy tadqiqot, ta'lim, turizm va xalqaro madaniy muloqot markazi bo'lishi kerak. Buning uchun muzey qurilishi bilan bir vaqtda uning ilmiy konsepsiyasi, kolleksiya siyosati, ekspozitsiya ssenariysi, tadqiqot dasturi, raqamlashtirish modeli va xalqaro hamkorlik strategiyasi ham puxta ishlab chiqilishi zarur.

Muhimi, Ipak yo'li muzeyi O'zbekistonning bugungi ilmiy va madaniy salohiyatini namoyon etishi lozim. Shunda u nafaqat sayyohlar uchun qiziqarli maskan, balki olimlar, talabalar, muzey xodimlari va yosh avlod uchun haqiqiy ilmiy-ma'rifiy markazga aylanadi.

Mahmudxon YUNUSOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori,
muzeyshtunos.

Ёнимиздаги одамлар

Мустаҳкам ирода соҳиб

1972 йил сентябрь. Алишер Навоий номидаги Самарқанд давлат университетининг физика факультетига ўқишга кирганимиздан сўнг биринчи дарсимиз олийгоҳнинг бош биносидаги 7-ўқув хонасида тарих фани билан бошланганди. Университетга қабул қилинганлар август ойида Булунғур туманига ўзум теришга жалб қилинганимиз сабаб талабалар бир-биримиз билан танишиб улгургандик...

Кўнғироқ чалинишидан бироз олдин аудиторияга кўриниши ва салобатидан ўқитувчига ўхшаш киши кириб келди. Биз бу кишини домла деб ўйлаб, ўрнимиздан туриб кутиб олдик. Лекин "домла" негадир минбарга бормасдан, охириги парталардан бирига ўтирди. Кейин билсак, у талаба тайёрлов бўлимидан ўқишга кирган ва маълум сабабларга кўра ўзум теришга бормаган, биздан 4-5 ёш катта Ғуломали Ғуломов экан. Йиллар ўтиб, Ғуломали ака СамДУда ишга қолди. Бугунги кунда қаттиқ жисмлар физикаси кафедрасида доцент лавозимида ишлаб келмоқда.

Ғуломов 1951 йилда Самарқанд шаҳридаги Хўжаоат маҳалласида дунёга келган. 1968 йилда шаҳардаги 14-мактабни битиргач, 1971 йилгача касб-хунар билим юртининг радиотелеустаси курсида ўқиган. Кейин СамДУнинг тайёрлов бўлимида тахсил олиб, университетнинг физика факультетига ўқишга қабул қилинган. 1977 йилда олийгоҳни муваффақиятли тугатиб, физика фанига, аниқрақ, радиоэлектроника соҳасига бўлган қизиқиши туфайли факультет раҳбарияти, хусусан, ўша вақтдаги кафедра мудири, доцент Абдуҳаким Носировнинг эътиборига тушди. У талабалик давридаёқ қаттиқ жисмлар физикаси кафедрасида хўжалик шартномалари асосида бажарилаётган илмий тадқиқот ишларига жалб қилинган.

1982-1987 йилларда Ғуломов Ленинград физика-техника институтининг аспирантурасида тахсил олди. 1992 йилда номзодлик диссертациясини химия қилиб, физика-математика фанлари номзоди илмий даражасига эришди.

Ғуломали ака ўз вақтида радиоустачиликни яхши ўзлаштиргани туфайли нафақат Самарқандда, аспирантурани ўтаган Ленинграддаги илмий ходимлар орасида ҳам хурмат қозонганди. Ўтган асрнинг 70-80-йилларида лампали телевизорларнинг бузилиши, бундай

ходимлар орасида ҳам хурмат қозонганди. Ўтган асрнинг 70-80-йилларида лампали телевизорларнинг бузилиши, бундай камлиги туфайли аксарият кишилар Ғуломали акага мурожаат қилишарди. Шу босис айниқса, Самарқандда табиатан кўнвоқ ва хушқачқак, одамхон, одамлар



дардига қулоқ тутадиган Ғуломали домланинг хизматидан фойдаланмаган кишилар кам бўлган.

Домла тақдир тақозоси билан имконияти чекланса-да, ўзоқ ва машаққатли йўлни босиб ўтди, яхши фазилатларни ўзлаштирди, кўплаб хайрли ишларга бош бўлди. У ҳар қандай шароитда инсонларга яхшилик қилиш, лозим ҳолларда моддий ва маънавий ёрдам қўлини чўзиш, меҳмондўстлик, камтарлик, софдиллик каби хислатлари билан бoshқалардан ажралиб туради.

Доцент Ғуломов СамДУ муҳандислик физикаси институтида тажрибали муҳандис олим сифатида электроника, радиоэлектроника, схемотехника фанлари бўйича бир неча ўқув-ўқувчи қўлланмалар муаллифи хисобланади. Ўзоқ йиллар кафедра қошида ташкил этилган радио тўраганини бошқариб, ўнлаб талабаларга радиосозлик бўйича қўшимча мутахассисликни ўргатди.

Ғуломали домла турмуш ўртоғи Меҳринисо Мусинова билан 5 фарзандни тарбиялаб voyяга етказди. Бугун 14 набира ва 23 нафар чевара қуршовида мазмунли ҳаёт кечирмоқда.

Биз, курсдошлар ҳаётни севишни, ундан завқланишни, ҳар қандай шароитда ҳам хушқачқак бўлиш лозимлигини Ғуломали дўстимиздан ўргандик.

Бугун физика-математика фанлари номзоди, доцент Ғуломали Ғуломов ўзининг 75 ёшлиқ юбилейини қаршиламоқда. Дўстимизни қутлуг ёши билан устаконалар ва усталарнинг камлиги туфайли аксарият кишилар Ғуломали акага мурожаат қилишарди. Шу босис айниқса, Самарқандда табиатан кўнвоқ ва хушқачқак, одамхон, одамлар

Мўмин ҚОДИРОВ,
физика-математика
фанлари доктори.

Nurobod tumanida IV-XVII asrlarga tegishli 48 ta arxeologik, XI-XIX asrlarga oid 5 ta arxitektura madaniy meros obyekti bo'lib, ular orasida hozirgacha davri aniqlanmagan, ta'mirtalab, muhofazaga muhtoj yodgorliklar ham bor.

Jumladan, tumanning Omondara mahallasidagi 12 ta "Mozorqo'rg'on"ning va Kilta mahallasi-dagi qoyatosh suratlarining qaysi davrga mansubligi bo'yicha aniq xulosaga kelinmagan. Qo'rg'oncha mahallasida joylashgan Ostona bobo majmuasida esa muhofaza belgisi o'rnatilgan bo'lsa-da, ta'mirtalab holatda turibdi.

Nuroboddagi madaniy meros obyektlari muhofazaga muhtoj

Nuroboddagi Jarquduq mahallasi Changali qishlog'ining g'arbiy qismida dengiz sathidan 759 metr balandlikda joylashgan, maydoni 80x60 metr bo'lgan, xalq tilida "Chiltepa" deb nomlangan tarixiy qal'a bor. Qal'a hududidan topilgan ashyolarni o'rgangan mutaxassislar uni qoraxoniylar davri (X-XI asrlar) ga tegishli, degan xulosa kelgan. Biroq mahalliy aholining ta'kidlashicha, ushbu yodgorlik hududida noqonuniy qurilish qilingan va qal'aning madaniy qatlamiga jiddiy zarar yetgan.

Yodgorlik hududining qariyb chorak qismi og'ir texnika yordamida buzilib, tegishli tashkilotlar ruxsatisiz

turarjoy binosi qurildi, - deydi Changali qishlog'ida yashovchi Matluba Hayitova. - Qishlog'imiz o'tmishidan darak beruvchi "Chiltepa" qal'asini saqlab qolish hamda kelajak avlodga o'z holicha yetkazish maqsadida hududda ruxsatsiz qurilishlarga barcham berilib, davlat muhofaza maydoni tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu masala yuzasidan shu yilning mart oyida viloyat madaniy meros boshqarmasi va viloyat hokimligiga murojaat qilgan edik. Afsuski, bir oydan ziyod vaqt o'tgan bo'lsa-da murojaatimizga aniq javob ololmadik.

Nurobod tumanidagi tarixiy yodgorliklarni ilmiy tadqiq etish, yo'qolib borayotgan madaniy meros



obyektlarini davlat muhofazasi-ga olish, noqonuniy qurilishlarga chek qo'yish bo'yicha nega chora ko'rilmayapti?

Mutasaddilardan javob kutamiz!
Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Urgutda Saidrizo Alizoda yod etildi

Urgut tumanidagi 5-umumta'lim maktabida jadid, ma'rifatparvar olim, jurnalist va tarjimon Saidrizo Alizoda xotirasiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirida Saidrizo Alizodaning nabirasi, Samarqand davlat universiteti faxriy professori Farhod Alizoda, faxriy o'qituvchi Salohiddin Ibragimov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi, professor Erkin Xo'jayev, Saidrizo Alizodaning jiyani, faxriy o'qituvchi Mirzoulug'bek Yusupov, maktab o'qituvchilari va o'quvchilari ishtirok etdi. Yig'ilganlar ma'rifatparvar Saidrizo Alizodaning hayoti va ijodi, millat ma'naviyati va taraqqiyoti yo'lidagi xizmatlari haqida fikr bildirib, o'z xotiralari bilan o'rtoqlashdi.

O'quvchilar Saidrizo Alizoda obrazini



mahorat bilan gavdalantirib, ma'rifatparvar haqida yozilgan she'rlar hamda uning ijodidan namunalari o'qib berishdi.

Tadbir so'ngida Farhod Alizoda tashkilotchilarga samimiy minnatdorlik bildirib, maktab kutubxonasi uchun esdalik sovg'alari topshirdi.

Sun'iy intellektning jurnalistika va OAVga ta'sirini, ya'ni ijobiy va salbiy jihatlarini o'rganish zarurati endilikda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tan olish kerak, neyrotarqoq tezkor ravishda xabar tayyorlab, ma'lumotlarni tahlil va tahrir qilish imkoniyati jihatidan ishning samaradorligi oshmoqda, xabarni qulay usulda va tez yetkazib berish imkoni yaratilmoqda.

Ammo shu bilan birga, sun'iy intellekt xizmatidan keng miqyosda foydalanishda o'ziga yarasha xavf va muammolar ham bisyor. Xususan, mediamateriallarda o'ziga xoslik hamda ijodkorlik omilining kamayishi, axborotning xolisligini ta'minlash muammosi, manipulyatsiya va dezinformatsiya

"Zamonaviy jurnalistika va sun'iy intellekt: istiqbollar va muammolar"

alomatlarini keltirish mumkin. Albatta, bu mavzuda ko'plab ilmiy-tahliliy maqolalar e'lon qilindi, bir necha kitoblar nashr etildi. Ularda sun'iy intellektning kasblar rivojiga ta'siri, xususan, jurnalistikada uning o'rni chuqur o'rganilib, yutuqlari barobarida ayrim kamchiliklar va xavflari tahlil etildi.

"Ovozi Samarqand" gazetasi kutubxonasidan" turkumi ostida nashr etilgan "Zamonaviy jurnalistika va sun'iy intellekt: istiqbollar va muammolar" nomli monografiya ham ayni shu dolzarb mavzuga bag'ishlangan. Mazkur monografiyada jurnalistika-

da sun'iy intellektdan foydalanishning mezon va metodlari, afzallik va kamchiliklari tahlil qilingan ilmiy va ilmiy-om-mabob maqolalar jamlangan. Shuningdek, jurnalistikada sun'iy intellektdan foydalanish, uning axborot sifati, xavfsizligi, ishonchlik darajasi, jurnalistika etikasi-ga ta'siri muammolari va bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar hamda qiyosiy tahlillarga oid ma'lumotlar berilgan.

Ushbu to'plamdan soha-da faoliyat olib borayotgan tadqiqotchilar va ustoz jurnalistlarning mavzuga oid tahliliy maqolalari o'rin olgan.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 736 nusxada chop etildi. Buyurtma 196. Hajmi 2 bosma taqvim, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G. HASANOV.

Navbatchi:

G. MO'MINOVA.


Sahifalovchi:

B. ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda